# Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

( 2021- yil yanvar-iyun oylarida )

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2021- yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 3495,5 mlrd.so‘m sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 114,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi ( 92,5 %) ni tashkil etdi.




mlrd. so‘m




*B–Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C-Ishlab chiqaradigan sanoat D-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, E-Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




FHI % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmining pasayishining asosiy omili bo‘lib, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 26,2 % ga, shuningdek, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning 46,3 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 14,7 % ga suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda 3,9 % ga oshganligi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 54,6 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,6 % ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,
*(yanvar-iyun oylarida, % da)*




### Tumanlar miqiyosida, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi,
**mln. so‘mda**

| Tumanlar nomi | 2020- yil yanvar-iyun | 2021- yil yanvar-iyun | FHI, % |
|---|---|---|---|
| G‘allaorol tumani | 5 993,3 | 13 401,4 | 179,3 |
| Forish tumani | 2 028,9 | 2 816,8 | 111,3 |
| Sharof Rashidov tumani | 15 188,1 | 14 751,0 | 77,9 |
| Zomin tumani | 12 420,2 | 7 748,8 | 50,0 |
| Jizzax shahri | 7357,8 | 11586,0 | 126,3 |
| Zafarobod tumani | 3470,1 | 2958,7 | 68,4 |
| Baxmal tumani | 893,0 | 1 237,4 | 111,1 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat







2021- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3233,5 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 92,5 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**,

*(yanvar-iyun oylarida, % da)*







O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,0 % ni (2020-yilning yanvar-iyun oylarida – 3,4 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 17,9 % ( 3,8 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 18,2 % (18,2 %) va quyi texnologiyalisi – 56,4 % ( 66,5 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta’mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 18,4 % ( 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 125,9 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 1,9 % ( 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 91,7 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 37,2 % ( 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 115,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 14,6 % ( 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajmi indeksi 109,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 4,2 %( 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 125,8 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-iyun oylarida davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 22,0 ming tonna kalava ip ( 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 54,4 % ga), ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

### O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

**O‘simlik yog‘i (tozalangan)**




**Paxta tolasi**




**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**




**Paxta linti**




**Paxta chigiti**




**Kalava ip**




### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-iyun | 2021- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni, *t.* | 33 538,0 | 32 582,2 | - 955,8 |
| Paxta tolasi, *t.* | 24 755,4 | 26 542,5 | 1 787,1 |
| O‘simlik yog‘i (tozalangan), *t.* | 5 024,9 | 2 712,0 | - 2 312,9 |
| Paxta linti, t. | 2 023,9 | 2 511,1 | 487,2 |
| Kalava ip, t. | 8 438,7 | 22 046,6 | 13 607,9 |

## Elektr, gaz, bug‘ bilan taminlash va havoni konditsiyalash

*yanvar-iyun oylarida*

mlrd. so‘m







FHI *% da*

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 165,3 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ( 4,7 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 46,3 % ga oshganligi kuzatildi.

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-iyun | 2021- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektr energiyasini uzatish bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m** | 112 713,1 | 124 703,9 | 11 990,8 |
| **Boshqa bug‘ va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming gkal** | 5,8 | 12,1 | 6,3 |
| **Gazsimon yonilg‘ini quvurlar orqali taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m** | 31 373,6 | 40 627,8 | 9 254,2 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

*yanvar-iyun oylarida*




Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 42,1 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,2 % ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

*(yanvar-iyun oylarida, % da)*




| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-iyun | 2021- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Suvni yig‘ish, qayta ishlash va taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m,** | 13 948,0 | 33 438,2 | 19490,2 |
| **Chiqindilarni yig‘ish, ishlov berish, yo‘qotish, utilizatsiya qilish bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m** | 11 247,9 | 8 632,3 | -2615,6 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig‘ish, qayta ishlash va taqsimlash bo‘yicha xizmatlar 31,2 % ga oshganligi kuzatildi, chiqindilarni yig‘ish, ishlov berish, yo‘qotish, utilizatsiya qilish bo‘yicha xizmatlar 43,0 % ga, pasayishi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1611,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-iyun oylariga mos davriga nisbatan 38,1 % ga oshgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 46,1 % ni tashkil etdi.




Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 30,9 % ni, shuningdek, G'allaorol tumani 15,6 % ni, Forish tumani 8,2 % ni hamda Paxtakor tumani 8,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, viloyatda iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich G'allaorol tumani ( 349,5 %), Forish tumani ( 210,4 %) va Zarbdor ( 185,9 %) tumanlarida qayd etildi.

## Shahar va tumanlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-iyun oylarida

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Jizzax viloyati | 1611,7 | 100,0 | 138,1 |
| Zomin | 85,0 | 5,3 | 100,7 |
| Jizzax shahar | 497,6 | 30,9 | 109,6 |
| Zarbdor | 109,0 | 6,8 | 185,9 |
| Arnasoy | 75,4 | 4,7 | 165,5 |
| Zafarobod | 34,4 | 2,1 | 118,1 |
| Baxmal | 44,9 | 2,8 | 102,6 |
| Mirzacho‘l | 33,8 | 2,0 | 103,1 |
| G‘allaorol | 251,5 | 15,6 | 349,5 |
| Paxtakor | 129,9 | 8,1 | 169,3 |
| Sharof Rashidov | 87,9 | 5,5 | 101,7 |
| Forish | 133,1 | 8,2 | 210,4 |
| Do‘stlik | 97,6 | 6,1 | 107,5 |
| Yangiobod | 31,6 | 1,9 | 106,1 |

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to‘g‘ri kelib, 32,3 % ni, shuningdek, Zarbdor tumani 12,1 % ni, Do‘stlik tumani 13,7 % ni, hamda Paxtakor tumani 10,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Jizzax shahar (157,6 %) hamda Zarbdor tumanida (173,2 %) qayd etildi.

## Shahar va tumanlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

(2021- yilning yanvar-iyun oylarida)

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Jizzax viloyati | 416,6 | 100,0 | 115,9 |
| Zomin | 21,9 | 4,0 | 83,3 |
| Jizzax shahar | 132,1 | 32,3 | 157,6 |
| Zarbdor | 49,5 | 12,1 | 173,2 |
| Arnasoy | 12,1 | 3,0 | 75,4 |
| Zafarobod | 19,4 | 4,7 | 145,2 |
| Baxmal | 22,5 | 5,5 | 106,7 |
| Mirzacho‘l | 7,7 | 1,9 | 62,7 |
| G‘allaorol | 18,0 | 4,1 | 69,1 |
| Paxtakor | 41,6 | 10,2 | 129,8 |
| Sharof Rashidov | 16,1 | 3,9 | 83,1 |
| Forish | 9,9 | 2,4 | 85,1 |
| Do‘stlik | 56,2 | 13,7 | 93,1 |
| Yangiobod | 9,6 | 2,2 | 114,2 |

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to‘g‘ri kelib, 30,6 % ni, shuningdek, G‘allaorol tumani 19,5 % ni, Forish tumani 10,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich G‘allaorol tumaniga to‘g‘ri kelib, 508,3 % hamda Forish tumanida 238,7 % qayd etildi.

## Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-iyun oylarida

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Jizzax viloyati | 1195,1 | 100,0 | 147,9 |
| Jizzax shahar | 365,4 | 30,6 | 98,7 |
| Arnasoy | 63,3 | 5,3 | 214,6 |
| Baxmal | 22,5 | 1,9 | 98,9 |
| G‘allaorol | 233,5 | 19,5 | 508,3 |
| Sharof Rashidov | 71,8 | 6,0 | 107,1 |
| Do‘stlik | 41,4 | 3,5 | 136,2 |
| Zomin | 63,1 | 5,3 | 108,6 |
| Zarbdor | 59,5 | 5,0 | 198,0 |
| Zafarobod | 15,0 | 1,3 | 95,2 |
| Mirzacho‘l | 26,2 | 2,2 | 127,2 |
| Paxtakor | 88,2 | 7,4 | 197,7 |
| Forish | 123,1 | 10,3 | 238,7 |
| Yangiobod | 22,1 | 1,7 | 102,9 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-iyun oylarida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1101,3 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 31,5 % ni tashkil etdi.

## Jizzax viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

2021- yilning yanvar-iyun oylarida

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Jizzax viloyati. | 3495,5 | 100,0 | 114,7 |
| Zomin | 142,0 | 4,1 | 109,4 |
| Jizzax shahar | 1213,6 | 34,7 | 102,5 |
| Zarbdor | 196,6 | 5,6 | 102,2 |
| Arnasoy | 110,9 | 3,2 | 101,6 |
| Zafarobod | 293,2 | 8,4 | 133,4 |
| Baxmal | 45,3 | 1,3 | 108,6 |
| Mirzacho‘l | 82,5 | 2,3 | 103,6 |
| G‘allaorol | 433,4 | 12,4 | 111,2 |
| Paxtakor | 195,2 | 5,6 | 101,5 |
| Sharof Rashidov | 180,6 | 5,2 | 108,6 |
| Forish | 191,7 | 5,5 | 104,6 |
| Do‘stlik | 378,8 | 10,8 | 101,0 |
| Yangiobod | 31,7 | 0,9 | 100,1 |

## Jizzax viloyati shahar va tumanlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining oshganini, Zafarobod (2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 133,4 %), G‘allaorol (111,2 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshganligi bilan izohlashimiz mumkin.




## Jizzax viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Jizzax shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 34,7 % ni) hamda Do‘stlik (10,8 %), G‘allaorol ( 12,4 %) va Zafarobod ( 8,4 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Baxmal (1,3 %) hamda Yangiobod (0,9 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jizzax shahri ( 6690,1 ming so‘m), Do‘stlik ( 5670,6 ming so‘m), Zafarobod ( 5782,9 ming so‘m) tumanlarida o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1136,9 ming so‘m bo‘lgan bo‘lsa, Jizzax shahrida 2743,1 ming so‘mni, G‘allaorol tumanida 1429,6 ming so‘mni, Arnasoy tumanida 1615,6 Do‘stlik tumanida 1460,4 ming so‘mni, Paxtakor tumanida 1706,6 ming so‘mni, tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-iyun oylarida, ming. so‘m

| | *Sanoat mahsulotlari* | *Iste’mol mahsulotlari* |
|---|---|---|
| Jizzax viloyati | 2465,6 | 1136,9 |
| Zomin | 845,6 | 506,3 |
| Jizzax shahar | 6690,1 | 2743,1 |
| Zarbdor | 2218,9 | 1230,1 |
| Arnasoy | 2374,5 | 1615,6 |
| Zafarobod | 5782,9 | 678,7 |
| Baxmal | 282,9 | 280,5 |
| Mirzacho‘l | 1563,6 | 641,0 |
| G‘allaorol | 2463,9 | 1429,6 |
| Paxtakor | 2565,2 | 1706,6 |
| Sharof Rashidov | 792,6 | 385,9 |
| Forish | 2037,6 | 1414,3 |
| Do‘stlik | 5670,6 | 1460,4 |
| Yangiobod | 1103,6 | 1101,4 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

2021- yilning yanvar-iyun oylarida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 1866,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 49,6 % ni tashkil etdi.






Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Baxmal tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Mirzacho'l (100,0 %), Yangiobod (100,0 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Do'stlik ( 11,7 %) tumanlarida hamda Arnasoy tumanida ( 35,3 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2021- yil 1-iyul holatiga)

Bugungi kunda viloyatda 3723 ta sanoat korxonalari faoliyat koʻrsatmoqda, shundan 1 138 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 30,6 % ) Jizzax shahriga, Sharof Rashidov tumaniga 721 tasi ( 19,4 %), Gʻallaorol tumaniga 368 tasi ( 9,9 %), Zomin tumaniga 280 tasi ( 7,5 %), Forish tumaniga 169 tasi (4,5 %) toʻgʻri kelmoqda.




2021- yil yanvar-iyun oylarida viloyatda 555 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 144 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 25,9 %) Jizzax shahrida, 86 tasi (15,5 %) Sharof Rashidov tumanida, 76 tasi (14,0 %) Gʻallaorol tumanida tashkil etild.

## 2021- yil yanvar-iyun oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarish

RAQAMLAR:

- Mahalliylashtirish dasturidagi loyihalar soni 55 ta
- Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1173,1 mlrd. so‘m.
- Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning eksport hajmi 21,0 mln. AQSH.dollar.

2021- yil yanvar-iyun oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi materiallarni ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturi doirasida 55 ta loyiha bo‘yicha 1173,1 mlrd.so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo‘lib, 21,0 mln. AQSH. dollarlik mahalliylashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi va 706 ta yangi ish o‘rni yaratildi.

### Ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi (mlrd.so‘mda.)

2021- yilning yanvar-iyun oylarida mahalliylashtirish dasturi bo‘yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1173,1 mlrd. so‘mni tashkil qildi. O‘z navbatida mazkur 2020-2021- yillarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni hajmini ko‘rishimiz mumkin.



## 2021-yil yanvar- iyun oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallarni ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining asosiy ko‘rsatkichlari

2021- yilning yanvar-iyun oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturi bo‘yicha 55 ta loyiha ( 1173,1 mlrd. so‘mlik mahsulot) amalga oshirilgan bo‘lib, Jizzax shahrida 31 ta ( 551,9 mlrd. so‘m) G‘allaorol tumanida 5 ta (357,8 mlrd.so‘m), Zafarobod tumanida 1ta (156,4 mlrd,so‘m), korxonalarga to‘g‘ri keladi.



Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning eksporti ham 2021- yilning tegishli davri bilan solishtirganda 21007,2 ming. AQSH. dollarga o‘shishi kuzatildi. O‘z navbatida, eksportning eng ko‘proq qismi Jizzax shahriga ( 19744,0 ming. AQSH. dollar), ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Shu bilan birga o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan 706 ta yangi ish o‘rini yaratildi.

**2021- yil yanvar- iyun oylarida mahalliylashtirish dasturi doirasida hududlar kesimida amalga oshirilgan korxonalar soni, birlikda**




Sanoat statistikasi bo‘limi

Tel.: (72-221-51-13)